

The Issue Of Concept In Linguistics

Buzrukhonova F.M.

Yangi Asr University

Teacher, Department of Languages

Annotation

The concept of concept is one of the main categories of cognitive sciences and linguoculturology. Despite the wide use of this term in foreign and domestic linguistics, there is still no single and generally accepted definition. Various approaches have been formed in modern linguistics to explain the concept. According to the results of scientific research, the concept serves the development of constitutional, religious, philosophical, historical and biological knowledge. This article analyzes scientific research conducted within the framework of the concept term, studies the existing scientific literature, and provides generalized conclusions.

Keywords: concept, linguoculturology, cognitive linguistics, ethnographic factor, physiological and biological knowledge, lexeme, coding.

Annotatsiya

Konsept tushunchasi kognitiv fanlar hamda lingvokulturologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu termin xorijiy va mahalliy tilshunoslikda keng qo'llanilishiga qaramay, hozirgacha yagona va umumqabul qilingan ta'rif mavjud emas. Zamonaviy tilshunoslikda konseptni izohlashga qaratilgan turli yondashuvlar shakllangan. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, konsept konstitutsiyaviy, diniy, falsafiy, tarixiy hamda biologik bilimlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur maqolada konsept atamasi doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi, mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganilib, umumlashtirilgan xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: konsept, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, etnografik omil, fiziologik va biologik bilimlar, leksema, kodlash.

Kirish

Konsept tafakkurning asosiy birliklaridan biri bo'lib, u tushuncha, obraz va lisoniy ma'noning umumlashgan shaklini ifodalaydi. Konsept shakllanishi individual obrazning vujudga kelishidan boshlanib, uning lisoniy birlik orqali ifodalanishi bilan yakunlanadi. "Konsept" termini tilshunoslikda bir vaqtning o'zida ham qadimiy, ham nisbatan yangi termin sanaladi. Dastlab 1928-yilda S.A. Askoldov-Alekseev tomonidan "Konsept va so'z" maqolasida ushbu tushuncha asosan so'z bilan bog'liq holda talqin qilingan. XX asr o'rtalaridan boshlab esa konsept tilshunoslik terminologiyasida mustaqil ilmiy birlik sifatida qo'llanila boshladi.

O'tgan asrning 80-yillarigacha konsept tushuncha termini bilan sinonim tarzda ishlatilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda u mazmun jihatidan ancha keng qamrovli

birlik sifatida talqin etilmoqda. Ilmiy izlanishlar natijasida konsept yaxlit va murakkab tizim sifatida shakllandi. Uning mohiyatini ochishda konseptni shifokorga murojaat qilgan bemor holatiga qiyoslash mumkin: bemor haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun uning kasallik tarixi, sabab va oqibatlarini o'rganilgani kabi, konseptda ham muayyan tushunchaning kelib chiqishi, rivoji va semantik yuklamasi mujassam bo'ladi. Tushuncha odatda yagona obraz bilan cheklansa, konseptda ko'plab obrazlar umumlashib, yadroviy mazmunni hosil qiladi. Masalan, "baxt" konsepti turli millatlarda turlicha mazmun kasb etadi: ayrim xalqlar uchun baxt — vatan muhabbati bilan bog'liq bo'lsa, boshqalar uchun u farzandli bo'lish bilan izohlanadi. Demak, tushuncha umumiy xarakterga ega bo'lsa, konsept har bir millatning etnik

tafakkur mahsuli sifatida individual xususiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

N. Mahmudov o'z ilmiy ishlarida konsept terminini eng ko'p ta'riflangan tushunchalardan biri sifatida baholab, lingvokulturologik tadqiqotlarda konsept muammosi markaziy o'rinni egallayotganini ta'kidlaydi. Ayniqsa, Rossiya tilshunosligida bu yo'nalish keng rivojlangan bo'lib, ko'plab dissertatsiyalar muayyan konseptlarning tahliliga bag'ishlangan.

Konsept keng qamrovli umuminsoniy birlik bo'lib, unda ma'lum bir leksemaning "semantik kodi" mujassam bo'ladi. Ushbu kodda so'zning kelib chiqishi, jamiyatlardagi taraqqiyoti, boshqa birliklar bilan munosabati aks etadi. Lingvokulturologiya doirasida konsept "til – tafakkur – madaniyat" uchligi asosida o'rganiladi. Shuningdek, konsept tarkibida etimologik qatlam ham muhim o'rin tutadi.

Inson ongida voqelik dastlab obraz sifatida shakllanib, qayta ishlanish jarayonida konseptga aylanadi va keyinchalik til vositasida ifodalanadi. Masalan, biror buyumni xarid qilishdan oldin inson ongida uning rang-barang xususiyatlari, sifat ko'rsatkichlari, madaniy va an'anaviy mosligi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Ushbu ichki jarayonlar majmui aynan konseptni tashkil etadi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept eng faol qo'llaniladigan va ko'p talqin etiladigan terminlardan biridir. Ba'zi olimlar uni falsafiy yoki psixologik kategoriya sifatida izohlasa, boshqalar uni leksik yoki grammatik birlik sifatida baholaydi. Masalan, N. Tixanova konseptni grammatik kategoriya deb hisoblasa, M. V. Nikitin uni murakkab, ko'p omilli mental birlik sifatida ta'riflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanildi. Jahon va mahalliy olimlarning konseptga oid qarashlari taqqoslab o'rganildi. Ayrim tadqiqotlar konseptning vaqt va makon bilan bog'liq

holda shakllanishini ko'rsatadi. Masalan, A. Volchkovning uch torli do'mbira haqidagi tadqiqotida konseptlar tarixiy bosqichlar asosida tahlil qilinib, ularning rivojlanish dinamikasi ochib beriladi.

Ushbu yondashuv shuni ko'rsatadiki, konsept doimo harakatda bo'ladi, vaqt o'tishi bilan uning mazmuni boyiydi, ayrim semantik qatlamlar esa faoliyatdan chiqib ketishi mumkin. Biroq shakl o'zgarishiga qaramay, konseptning mohiyati barqaror qoladi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konsept umummilliy g'oyalar, diniy qarashlar, psixologik va falsafiy bilimlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- matnning semantik kodini yaratadi;
- tushunchaning kelib chiqish tarixini aks ettiradi;
- umumiy va milliy xususiyatlarni birlashtiradi;
- ijobiy va salbiy mazmunlarni o'zida mujassamlashtiradi;
- hayotiy tajriba asosida boyib boradi;
- mental va psixik jarayonlarni ifodalaydi;
- jamiyat madaniyati haqida umumlashgan bilimlarni shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, konsept murakkab va ko'p qatlamli tizim bo'lib, u cheksiz imkoniyatlarga ega tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Uni chuqurroq o'rganish orqali inson tafakkuri, madaniyati va tilning o'zaro aloqadorligi yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Konsept vaqt o'tishi bilan rivojlanib, yangi ma'no qatlamlari bilan boyib boradi.

ADABIYOTLAR

- Алиева Г. Француз тилида “аёл” концептининг когнитив таҳлили // Молодой учёный. 2020. № 30. –312 –3176.
- Кириченко С. В. Дорожная концепция в мировых английских и русских

фразеологических картинах.
Диссертация магистра – Санкт-Петербург, 2016. – 80 с.

Muhammedova S., Sapaniyozova M. Matn lingvistikasi. – T.: 2011. –117 b.

Mardiyev T. Baxt tuyg'usini ifodalovchi konseptning ingliz va o'zbek tilida verballashuvi // Ilmiy axborotnoma. 2016 . № 4. – 101b.

Mamatov E. Zamonaviy tilshunoslik – T.: – 2019. –170 b.

Primov A., Qodirova X.Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Urganch, 2019.

Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, 2006. – 92 b.

Волчков А. Концерт для трехструнной домры в творчестве отечественных композиторов диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – М., 2011. – 229 с.

http: // www. Liberliber,it /biblioteca/a/Alighieri/ ladvina comedia/ htme/ index. Htm. 11.
http://cooltext.co